

SUV RESURSLARIGA TABIIY EKOLOGIK HAMDA ANTROPOGEN OMILLAR TA'SIRI

Akramova Shiringul Furqatjon qizi

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Hidrometeorologiya
Fakulteti 1-kurs talabasi*

Anotatsiya: *Ushbu ilmiy maqola tarkibiga suvning ifloslanishiga ta'sir ko'rsatayotgan omillar. Ularni qay tarzda bartaraf etish to'g'risida ma'lumotlar kiritilgan. Suv ifloslanishini keltirib chiqarayotgan ayrim muammolarga tasnif berilgan*

Kalit so'zlar: *Sanoat mahsulotlari, antropogen omil, suv ifloslanishi, atrof - muhit*

Abstract: *Factors affecting water pollution are included in this scientific article. Information on how to eliminate them is included. Some of the problems that cause water pollution are classified*

Key words: *Industrial products, anthropogenic factor, water pollution, environment.*

Аннотация: *В данную научную статью включены факторы, влияющие на загрязнение воды. Включена информация о том, как их устранить. Некоторые из проблем, вызывающих загрязнение воды, классифицируются.*

Ключевые слова: *Промышленная продукция, антропогенный фактор, загрязнение воды, окружающая среда.*

Suv-inson hayoti uchun juda zarur hisoblanadi. Nafaqat insonlar uchun, balki, butun tirik mavjudotlar, jonli va jonsiz tabiatning atrofga chiqaradigan salbiy va ijobiy jarayonlarida ham muhim rol o'ynaydi. Negaki, tabiat suv bilan tirikdir. Ammo afsuski, ba'zida o'zimiz bunday qadrli ne'matimizning ifloslanishi uchun o'z hissamizni qo'shib qo'yamoqdamiz., Tabiiy suv'' deganda qanday suv nazarda tutiladi. Fikrimcha, bunday suvni inson ta'sir ko'rsatmagan suv desak mubolag'a bo'lmaydi. Ammo bilamizki yer yuzida bunday suvning o'zi yo'q. Zero, insoniyat havoni ifloslantirib bo'ldi. Yerning yuza qismidagi namlik bug'lanib, atmosferada bulutga aylangach, yomg'ir bo'lib yana zaminga yog'adi. Yomg'ir suvi ham biz ifloslantirib ulgurgan tuproqqa singiydi. Xuddi shu bois ham inson ta'sir ko'rsatmagan suvning o'zi yo'q deb hisoblayman. Demak, bundan bundan ko'rinib turibdiki, suv tushunchasi ham shartli qo'llanilmoqda. Suvning tarkibida ma'lum bir minerallar mavjud. O'z navbatida uning tarkibida vodorod, kislorod, xlor, kalsiy, magniy, yod kabi bir qancha elementlar mavjud. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston suv tanqisligi bo'yicha dunyodagi 164 mamlakat ro'yhatida 25-o'rinni egallamoqda. Mazkur statistik ma'lumotni joriy yilda Jahon resurslari instituti (WRI) ma'lum qilgan edi. WRI tadqiqotiga ko'ra, O'zbekiston suv tanqisligi yuqori bo'lgan 27 mamlakat ro'yhatida.

Ular orasida Qirg'iziston, Afg'oniston, Armaniston, Turkiya, Italiya va boshqa davlatlar bor. Mamlakatimiz esa reytingning 8-qatoridan joy olgan. O'zbekistonda iste'mol qilinadigan suvning 95 foizi daryo va soylardan olinadi. Toza suvlarda ekologik muvozanat mavjud. Funksiyalariga qarab suv havzasidagi organizmlar iste'molchilarga, ishlab chiqaruvchilarga yoki destruktorga beriladi. Tarkibida kam miqdorda bakteriya mavjud suvlar ham bor. Lekin ular tabiatda kam miqdorda uchraydi. Bilamizki suvlarning tarkibida turli xil minerallar mavjud bo'lib, hususan oqova suvlarda fosfatdan tashqari suvning qolgan qismini beradigan zaharli moddalar ham mavjud. Suvning ifloslanishi mavzusi odamlar, hayvonlar va o'simliklar hayotiga katta ta'siri tufayli tadqiqotchilar va atrof-muhitga qiziquvchilarning e'tiborini tortgan muhim tadqiqotlardan biridir. Bu o'z navbatida havo hamda tuproq ifloslanishiga qaraganda zarari kam deb ayto olmaymiz lekin ular bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqotlar umuman tabiatda ifloslanish tushunchasini, asosan suv havzalarining ifloslanishi bilan belgilanadi. Yer osti suvlarining ifloslanishidan tashqari tabiatda ko'plab ifloslanish, zararlanish jarayonlari bo'lgan. Ulardan eng muhimi biologik, fizik va qattiq va suyuq chiqindilarni daryolar, ko'llar va dengiz suvlariga tashlash orqali hosil bo'lgan ifloslanish jarayonidir. Birgina chiqindi tashlanishi oqibatida qanchadan-qancha m kub suv ifloslanadi. Sanoatlashtirish va qishloq xo'jaligi kabi inson faoliyati atrof-muhitning buzilishiga va ifloslanishiga katta hissa qo'shadi, va bu hayot beruvchi -suv havzalariga (daryolar va okeanlar) jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Suv -dunyodagi muqobili bo'lmagan yagona resursdir. Boshqa deyarli hamma narsa, ya'ni gaz, elektr manbaalari, yoqilg'i va boshqalarning muqobili mavjud. Ular tugasa o'rniga muqobilidan foydalanish mumkin. Suv bu umumfoydalanuvchi resursdir. Millionlab iste'molchilar bir vaqtning o'zida suvdan turli maqsadlarda, ya'ni ichimlik suvi, elektr ishlab chiqarish, sug'orish, sanoatda, iqtisodiyotda, sog'lomlashtirish manbai, ekologik muhitni asrovchi manbaa sifatida foydalanishadi. Asosan suv sanoatda foydalanilganda yaroqsiz holga keladi. Hozirgi kunda antropogen ya'ni inson omili ta'sirida suv ifloslanmoqda. Undan oqilona foydalana olmaslik natijasida ya'ni mamlakatimiz hududidagi Amudaryo hamda Sirdaryo daryolarining asosiy qismi sug'orishga sarflanganligi sababli Oroldek katta ko'l quriganini guvohi bo'lib turibmiz. Bunday fojeali holat yuzaga kelishi uchun ham juda katta muddat o'tdi. Birgina Yevropa davlatlariga qiyoslasak, Yevropada suvning tozaligini daryolarning ekologik holatini yaxshilash borasidagi ishlar birinchi o'rinda turadi.

Sirdaryo va Amudaryo havzalarida suv omborlarining murakkab tizimi yaratildi, uning asosiy boshlang'ich maqsadi, suvni qish oylarida, keyinchalik, yozda foydalanish uchun, asosan sug'orish va elektr energiyasini ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun to'plash edi. Ammo suvdan foydalanish bizda yuqori darajada emas. Yana bir masala, suvni ifloslantirmay, tabiiy holatini saqlash, oqova suvlaridan foydalanish. Masalan, sanoatda sovutishda hayotda xo'jalik maqsadlarda ikkilamchi suvdan foydalanishni ko'paytirish, kanallardan oquvchi suvlarning yo'qotilishini kamaytirish lozim. Asosiy muammoyimiz shuki, ko'p suv yo'qotamiz, suvdan behuda

foydalanamiz. Suv muammosi asosan aholi sonining oʻsishi bilan, suvga boʻlgan talab va ehtiyojlar ham ortib boradi. Bugungi kunda suvni tejash, undan oqilona foydalanish borasida koʻplab yangidan yangi loyihalar ishlab chiqilishi lozim. Oʻzbekistonda tabiiy resurslarni hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab -avaylash, qulay muhit yaratish, ekologik xavfsizlik, aholi hayoti va salomatligining yuqori sifatiga barqaror rivojlanishiga qaratilgan davlat siyosatining amalga oshirilishini taminlash hamda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni asrash davlat, jamiyat va har bir mamlakat fuqarosining ishiga aylanishiga koʻmaklashish maqsadida 2019-yil 8-yanvar sanasida Oʻzbekiston Ekologik Tabiiy iqlim oʻzgarishi asta-sekin, ming va hatto millionlab yillar davomida roʻy berayotganligi sababli kelgusi asrlar uchun tabiiy miqyosda haroratning koʻtarilib borishidan koʻra, aynan insoniyatning taʼsirida boʻlayotgan oʻzgarishlarga eʼtibor qaratish bugungi kunning eng dolzarb muammosiga aylanib ulgurdi. Hozirgi kunga kelib, iqlimning oʻzgarishiga jahonning koʻplab mamlakatlari va hattoki, yerning har bir qarichi oltinga teng boʻlgan Yaponiya davlatidagi daryolarda ham barpo etilayotgan suv omborlari oʻzining katta hissasini qoʻshmoqda. Suv omborlarini loyihalayotganda ulardan har tomonlama kompleks foydalanish koʻzda tutiladi. Lekin bunda ularning atrof muhitga koʻrsatadigan taʼsirini ham oʻrganish muhim masalalardandir. Yurtimizda tadbiq etilayotgan suv tejoychi texnologiyalar ichida tomchilatib sugʻorish, alohida ahamiyatga ega. Hattoki davlatimiz rahbarining qaroriga asosan mazkur texnologiyalarni qoʻllagan fermerlarga har bir gektarga 8 million soʻm subsidiyalar ham tashkil etildi.

Ifloslanishning turlari koʻp: kimyoviy, bakterial, issiqlik orqali, mexanik, radiofaol. Ularning aksariyati asosan inson taʼsiri borqali sodir boʻladi. Suvning eng koʻp ifloslanishlari qatorida -zaxarli ogʻir metallar, dalalardan yuvib tushirilgan pestitsidlar, nitrat va fosfatlar, neft mahsulotlari, ustki faol moddalar. Qonun va nazorat idoralari fabrika va zavodlardan oqava suvlarni oqizishdan oldin ularni tozalashlarini talab qiladi. Baliq xoʻjaligi suv havzalarining kimyoviy ifloslanishi nimasi bilan xavfli? Ular orqali odamlar isteʼmol qilayotgan baliqlarni zaharlaydi. Suvning radiofaol ifloslanishi juda ham havflidir. U radiofaol moddalarning juda kichik konsentratsiyalarida ham inson va hayvonlar uchun juda havfli.

Ular daryo va suv havzalariga radiofaol chiqindilar oqizilganida, tubiga koʻmilganida tushadi. Yer osti suvlariga esa yer qariga atmosfera suvlari bilan singganida oʻtadi. Har yili daryo va okeanlarga 12 mln tonnagacha neft oqib tushadi. Yigʻilib borilayotgan ifloslanish hajmini tasavvur ham qilib boʻlmaydi. Neft suv sathini yupqa neft plyonkasi bilan juda tez qoplaydi. Bu qatlam havo va yorugʻlikni oʻtishiga toʻsqinlik qiladi. Suvga 1 tonna neft tushganidan soʻng 10 daqiqa oʻtib, neft, „dogʻi“ hosil boʻladi. Mana, qanday suvga zarar yetkizyapmiz. Neftning toʻkilishi esa dengiz sutemizuvchilari oʻlimiga olib keladi. A

Tabiiy iqlim oʻzgarishi asta-sekin, ming va hatto millionlab yillar davomida roʻy berayotganligi sababli kelgusi asrlar uchun tabiiy miqyosda haroratning koʻtarilib borishidan koʻra, aynan insoniyatning taʼsirida boʻlayotgan oʻzgarishlarga eʼtibor

qaratish bugungi kunning eng dolzarb muammosiga aylanib ulgurdi. Hozirgi kunga kelib, iqlimning o'zgarishiga jahonning ko'plab mamlakatlari va hattoki, yerning har bir qarichi oltinga teng bo'lgan Yaponiya davlatidagi daryolarda ham barpo etilayotgan suv omborlari o'zining katta hissasini qo'shmoqda. Suv omborlarini loyihalayotganda ulardan har tomonlama kompleks foydalanish ko'zda tutiladi. Lekin bunda ularning atrof muhitga ko'rsatadigan ta'sirini ham o'rganish muhim masalalardandir. Yurtimizda tadbiiq etilayotgan suv tejovchi texnologiyalar ichida tomchilatib sug'orish, alohida ahamiyatga ega. Hattoki davlatimiz rahbarining qaroriga asosan mazkur texnologiyalarni qo'llagan fermerlarga har bir gektarga 8 million so'm subsidiyalar ham berilmoqda.

Jahondagi barcha tadqiqotlar suvning ifloslanishini tavsiflash va uning sabablarini, shuningdek, inson salomatligi va umuman suv ifloslanishini boshqarish uchun oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan. Suvning ifloslanishi haddan tashqari konsentratsiyasining mavjudligi sifatida aniqlanadi. Atrof muhitga hususan suvga turli zararli narsalar tashlanishi suvning, shu bilan birga tabiatning ifloslanishi deyiladi. Sanoat mahsulotlari, qishloq xo'jaligi faoliyati, insonning kundalik faoliyati bunga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Jahondagi bo'layotgan tadqiqotlar ham aynan tiriklik manbayi bo'lgan suvning ifloslanishini bartaraf etish, undan behuda, bemaqsad foydalanmaslika qaratilgan. Dunyoning ko'pgina davlatlarida suv tanqisligi kuzatilmoqda. Masalan afrika davlatlarini olaylik. Nigeriyada suvning ifloslanishi turli omillar ta'sirida vujudga kelmoqda: jumladan, aholining zichlashuvi, kanalizatsiya qochqinlari, neft va neft mahsulotlarining suv havzalariga to'kilishi bilan bog'liq. Yana ayta olamizki, suvning ifloslanishi yer osti va yer usti suvlarining qisam zaharli moddalar ta'sirida ifloslanishi, asosan antropogen omil ta'sirida vujudga keladi. Plastik idishlar, metall qutilar, shinalar, va suvga tashlangan barcha turdagi chiqindilar uning tarkibini o'zgarishiga, suv massasining ifloslanishiga olib keladi. Buning asosiy qismi inson omili ta'sirida sodir bo'layotgani hammamiz uchun achinarli holatdir. Shu bilan birga fabrikalardan, avtomobillardan, havo ifloslanishidan fermer xo'jaliklaridan kanalizatsiya va suv inshootlaridan suv yo'liga qadar kimyoviy moddalar u ifloslantiradigan suv havzasiga ham ta'sir qiladi. Suvning ifloslanishi butun insoniyatga ziyon keltiradi va bu o'z navbatida global muammodir.

Suv ifloslanishi butun insoniyatga ziyon keltiradi va bu o'z navbatida global muammodir. Suv ifloslanishi oldini olinmasa juda katta muammolarni keltirib chiqarishi turgan gap. Shu sababli biz insonlar ongli ravishda suvdan to'g'ri va oqilona foydalanishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.2004-2020.Ziyo istagan qalblar uchun.
- 2.Ziyo.uz.com kutubxonasi
- 3.www.hudud. 24.uz

4. www.ecouz.uz

